

---

Yangi 2024-2025 o'quv yili boshlanishi munosabati bilan tumanimiz bo'ylab "Bir bo'lsak - yagona xalqmiz, birlashsak - vatanmiz!" shiori ostida "Birinchi qo'ng'iroq" tadbirlari o'tkazilmoqda.

Ana shunday tadbir tumanimizning Istiqlol mahallasidagi 20-o'rta ta'lim maktabida ham bo'lib o'tdi. Tadbirda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Toshloq tuman bo'linmasi rahbari so'zga chiqib, o'quvchi yoshlarni bugungi o'quv yilining ilk kuni bilan qizg'in tabrikladi va mamlakatimizda sifatli ta'limga qaratilayotgan e'tibor, yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar xususida so'z yuritdi. Birinchi sinf o'quvchilariga Prezident sovg'alari topshirildi. O'quvchilar tomonidan tayyorlangan bayram dasturi namoyish etildi.

2024-09-09 10:13:42